ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

YASHIL IQTISODIYOT- ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA USTUVOR VAZIFA SIFATIDA

M.F.Umarqulova
NavDU Kimyo ta'lim yo`nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: prof. D.A.Karimova

Annotatsiya

Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotning mohiyati va rivojlanish yo`nalishlari ko`rib chiqilgan, hamda ekologik innovatsiyalarga alohida e`tibor qaratilgan. Mamlakatimizdagi sanoat korxonalari tomonidan ekologik innovatsiyalarni muvaffaqiyatli ishlab chiqish va amalga oshirishda to`sqinlik qiladigan sabablar tizimlashtirilgan. Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida innovatsion faoliyatini rivojlantirish uchun rag`batlantiruvchi shart-sharoitlarni shakllantirish omillari ko`rib chiqiladi

Аннотация

В статье рассмотрены сущность и направления развития «зеленой» экономики, при этом сделан акцент на экологические инновации. Систематизированы причины, препятствующие успешной разработке и внедрению промышленные предприятиями нашей страны экологических инноваций. Рассмотрены факторы формирования стимулирующих условий для развития инновационной деятельности в сфере охраны окружающей среды.

**Kalit so`zlar:** yashil, iqtisodiyot, ekologik innovatsiya, atrof-muhit, muhofaza, rag`batlantirish, yo`naltirish.

Ключевые слова: зеленый, экономика, экологические инновации, окружающая среда, защита, продвижение, ориентация.

Dunyodagi hozirgi ekologik vaziyat iqtisodiy rivojlanishning texnogen turidan ekologik muammolarni hal qilishga yo`naltirilgan yangi yo`lga o`tish zarurligini isbotlaydi. So`nggi vaqtlarda ilmiy va siyosiy doiralarda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish konsepsiyasi faol targ`ib qilinmoqda. 2012-yil iyu oyida Rio-de-Janeyfoda BMT ning Barqaror rivojlanish bo`yicha konferensiyasi yashil iqtisodiyot masalalariga bag`ishlandi, ushbu ahjuman yashil iqtisodiyot masalalari ko`tarilgan birinchi xalqaro konferensiya edi. Vaholanki, yashil iqtisodiyot tushunchasi 2008-yildan boshlab xalqaro tashkilotlarning konseptual hujjatlari va atamalarida qo`llanilib kelinar edi.

Yashil iqtisodiyotning asosiy vositalaridan biri bu ekologik innovatsiyalar hisoblanadi. Xaqaro hujjatlarda yashil sifatdosh atamalardan faol foydalaniladi: yashil iqtisodiyot, yashil sanoat, yashil bozorlar, yashil bandlik va boshqalar. Yashil o`sishni talqin qilishda ikki xil yondashuvni belgilash maqsadga muvofiq keladi:

- keng qamrovli yondashuv doirasida amalda butun iqtisodiyot va barcha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ekologiyalashtirish zarurati ko`rib chiqiladi:
- tor doiradagi yondashuv faqat iqtisodiyotni ekologiyalashtirish va global milliy miqyosda yashil bozorlarni rivojlantirish bilan bevosita bog`liq bo`lgan tarmoqlar va faoliyat turlarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Hozirgi bosqichda yashil iqtisodiyot atamasi aniq ta`rifga ega emas, chunki kontsepsiya hali rivojlanish bosqichida. YUNEP

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

(Birlashgan Millatlar tashkilotining Atrof-muhit dasturi) ma`lumotlariga ko`ra, yashil iqtisodiyot inson farovonligini uzoq muddatli yaxshilash va tengsizlikni kamaytirishni ta`minlaydigan, kelajak avlodlarga atrof-muhit va uning kamayishi uchun jiddiy xavflardan qochish imkonini beradi.

Yashil iqtisodiyotning ayrim ustuvor yo`nalishlari bilan tanishib chiqamiz:

- qayta tiklanadigan energiya manbalari-tabiiy energiya manbalari, qayta tiklanadigan quyosh, shamol, chuchuk suv oqimlari. Suv toshqini va geotermal issiqlik;
- energiya tejamkorlik-turli texnologik ishlab chiqarishlarda energiya sarfini kamaytirishga qaratilgan;
- mobillik- atrof-muhitga transportlarning ta`siri, jumladan issiqxona gazlari va shovqin ta`sirini kamaytirishga qaratilgan;
- sanoat- chiqindilar chiqishi bilan bog`liq muammolarni oldini olishga qaratilgan;
- Innovatsiya-ekologik innovatsiyalarni keng joriy etish, ekologik faoliyatga iqtisodiy ta`sirni kamaytirishga qaratilgan yo`nalishlardan iborat.

Yashil iqtisodiyot iqlim o`zgarishini sekinlashtiradi, yangi ish o`rinlarini yaratishga imkon beradi, aholi salomatligini yaxshilash, resurslarning tugashining oldini olish kabi afzalliklarga ega. Buning natijasida barqaror qishloq xo`jaligi, yani ekologik toza usullar bilan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga erishiladi. Bir so`z bilan aytganda, yashil iqtisodiyot ekologik barqarorlikni ta`minlashga qaratilgan iqtisodiy model bo`lib, tabiiy resurslardan oqilona faydalanish, chiqindilarni kamaytirish, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik tamoyillariga tayanib ish olib boradi.

O`zbekiston Respublikasi prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining” yashil iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son qarori bilan O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish maqsadlari belgilandi. Mazkur Qarorga yashil va inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslami tejashni yanada kengaytirish borasida aniq maqsadlar belgilangan.

Yashil iqtisodiyotga o‘tishning maqsadi, tabiiy resurslami asrash,

zaharlanuvchi moddalar emissiyalarini kamaytirish va kelgusi avlodlaming hayotini ta'minlashga yordam beradigan barqaror va

ekologik to‘g‘ri rivojlanish modelini yaratishdir. Biz ushbu maqolamiz orqali iqtisodiy jarayonlar natijasida tabiiy resurslarga antropogen ta’siri, raqamli iqtisodiyot rivojlanishi sharoitida atrof-muhitni ifloslantiruvchi asosiy manbalar, atrof-mutit muhofazasiga qaratilgan tadbirlar va uning huquqiy asoslari, ilmiy amaliy jihatlari haqida ma`lumot berishga harakat qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.A.Karimova. Чиқиндини қайта ишлаш ва ривожлантиришда композицион материалларнинг аҳамияти. Ж. Композицион материаллар. №2.2019.

2. D.A.Karimova. Экологик кимё дарслик. Ўзбекистон республикаси Олий ва ўрта махсус таълм вазирлигининг 2019 йил 2-майдаги 394 сон буйруғи.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

3. D.A.Karimova. Муҳандислик экологияси. Ўзбекистон республикаси Олий ва ўрта махсус таълм вазирлигининг 2019 йил 2-ноябрдаги 1023 сон буйруғи.

4. D.A.Karimova. Энергетика соҳасидаги экологик муаммолар ва уларни ечиш йўллари. “Ўзбекистоннинг саноатлашган ҳудудларида барқарор тараққиёт масалалари” мавзусидаги республика илмий амалий конференцияси материаллари. 2021- йил, 8- июнь. Тошкент.

5. D.A.Karimova. Чиқиндисиз ва кам чиқиндили технология асослари. “Ўзбекистоннинг саноатлашган ҳудудларида барқарор тараққиёт масалалари” мавзусидаги республика илмий амалий конференцияси материаллари. 2024- йил. Тошкент.